TA’LIM JARAYONIDA YOSH AVLODDA IJTIMOIY MAS’ULIYAT VA AXLOQIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Mamasharifova S.Y.,
GDPI magistranti
Ilmiy raxbar: Isayeva G.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim jarayonida yosh avlodda ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning psixologik hamda pedagogik asoslari yoritilgan. Ushbu fazilatlarni rivojlantirishda oila, maktab va jamiyatning o‘zaro hamkorligi muhim omil sifatida qaraladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida yoshlarning ongini yuksaltirish, ularni halollik, adolat, vatanparvarlik va burchni his qilish kabi ijtimoiy-axloqiy fazilatlar asosida tarbiyalash masalalari chuqur tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: jtimoiy mas’uliyat, axloqiy qadriyatlar, psixologik-pedagogik asoslar, yosh avlod, ta’lim jarayoni, tarbiya, fazilatlar, halollik, vatanparvarlik, burch, jamiyat, oila, maktab, shaxs tarbiyasi.

Abstract: This article discusses the psychological and pedagogical foundations of the formation of social responsibility and moral values in the younger generation during the educational process. The interaction of family, school and society is considered an important factor in the development of these qualities. The issues of raising the consciousness of young people in the educational process, educating them on the basis of social and moral qualities such as honesty, justice, patriotism and a sense of duty are analyzed in depth.

Keywords: Social responsibility, moral values, psychological and pedagogical foundations, young generation, educational process, upbringing, qualities, honesty, patriotism, duty, society, family, school, personal upbringing.

Аннотация: В статье рассматриваются психолого-педагогические основы формирования социальной ответственности и нравственных ценностей у подрастающего поколения в образовательном процессе. Взаимодействие семьи, школы и общества считается важным фактором развития этих качеств. В образовательном процессе глубоко анализируются вопросы повышения сознательности молодежи, воспитания ее на основе таких социально-нравственных качеств, как честность, справедливость, патриотизм, чувство долга.

Ключевые слова: Социальная ответственность, нравственные ценности, психолого-педагогические основы, молодое поколение, образовательный процесс, воспитание, качества, честность, патриотизм, долг, общество, семья, школа, воспитание личности.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o‘quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir bo’lajak pedagog-o‘qituvchi o‘z kasbiy tayyorgarligini, pedagogik maxoratini rivojlantirib borishini talab etadi.[1]

Ta’lim samaradorligini oshirish, shaxsni ta’lim jarayonining markaziga qo‘yish hamda yoshlarning mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun, o‘z sohasida chuqur bilimga ega bo‘lgan, shu bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan samarali foydalana oladigan o‘qituvchilarga ehtiyoj katta.[2] Shu sababli barcha fan yo‘nalishidagi talabalarni pedagogik va

axborot texnologiyalari bilan tanishtirish, ularni interfaol metodlar bilan ishlashga o‘rgatish, shuningdek, o‘zlashtirgan bilimlarini amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish muhim sanaladi.[3]

Lawrence Kohlberg axloqiy rivojlanish nazariyasini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, axloqiy rivojlanish olti bosqichga bo‘linadi va uch darajadan iborat: prekonvensional, konvensional va postkonvensional. Kohlbergning nazariyasi yoshlarning axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonini tushunishga yordam beradi.[4]

R. Edward Freeman biznes etikasi va stakeholder nazariyasining asoschisi sifatida tanilgan. Uning fikriga ko‘ra, ta’lim jarayonida ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda barcha manfaatdor tomonlar (o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamiyat)ning ishtiroki muhimdir. Bu yondashuv yosh avlodda ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishda samarali bo‘lishi mumkin.[5]

William Schweiker diniy etikasi va global axloqiy masalalar bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning fikriga ko‘ra, ta’lim jarayonida axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda diniy va madaniy kontekstlarni hisobga olish muhimdir.[6] Bu yondashuv yoshlarning axloqiy qarorlar qabul qilishda kengroq nuqtai nazarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida yosh avlodda ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish — jamiyatning barqaror va sog‘lom rivojlanishi uchun zaruriy shartlardan biridir. Ushbu jarayon nafaqat ta’lim muassasalarida, balki oilada, jamiyatda va ommaviy axborot vositalarida olib borilayotgan ma’naviy-tarbiyaviy ishlar bilan uzviy bog‘liq.

Psixologik nuqtayi nazardan qaraganda, axloqiy qadriyatlar va mas’uliyat hissi bola shaxsining rivojlanishida erta yoshdan boshlab shakllanadi va bunda refleksiya, empatiya, o‘zini anglash va ichki motivatsiya kabi psixik jarayonlar muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, o‘quvchilarda bunday fazilatlarni rivojlantirishda o‘qituvchining shaxsiy namuna bo‘lishi, adolatli baholashi va motivatsion qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Chet el olimlarining (L. Kohlberg, J. Dewey, C. Gilligan) nazariy qarashlari ham ushbu jarayonni chuqur anglash va metodik jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlari:

1. Orifjonova Nazokat Maribjon qizi (2023) YOSH